

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

RAJABOV ORZIYON MAMASOLIYEVICH

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIKA XIZMATLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economics Sciences**

Rajabov Orzijon Mamasoliyevich

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish 3

Раджабов Орзижан Мамасолиевич

Повышение эффективности логистических услуг на основе цифровых технологий.....25

Rajabov Orzijon Mamasoliyevich

Improving the efficiency of logistics services based on digital technologies.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

RAJABOV ORZIYON MAMASOLIYEVICH

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIKA XIZMATLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4026 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sharipov To'liq Saidahmedovich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Urazov Komil Bahramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nasimov Dilmurod Abdulloyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi PhD.03/28.02.2022.L18.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil *18-yanvar* soat *09:00* dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel./faks: (99866) 231-03-93, (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*095* raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" - yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil "6" - yanvardagi № 2 - raqamli reestr buyumnomasi).



[Handwritten signature]

M.E.Po'latov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

[Handwritten signature]
Sh.O.Kuvandikov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

[Handwritten signature]
M.M.Muxammedov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurligi. Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlari sharoitida "Sanoat 4.0" formatining jadal o'zgarib borishiga ko'ra samarali, tezkor va tejamkor tovarlar harakatini ta'minlovchi raqamli texnologiyalarga asoslangan logistika xizmatlari bozoriga bo'lgan talab keskin darajada ortib bormoqda. "Global logistika xizmatlar bozori hajmi 2023-yilda 8,96 trillion AQSH dollarini tashkil etib, 2033-yilda uning qiymati 21,91 trillion dollardan oshadi¹. Bugungi kunda jahon logistika xizmatlari bozorida buyurtmalar va zaxiralarni boshqarish kabi jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Jahonda xizmatlar sohasida amalga oshirayotgan ilmiy-tadqiqotlar tarkibida logistika xizmatlari samaradorligini oshirishga bag'ishlangan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada logistika xizmatlari samaradorligini raqamli va innovatsion texnologiyalarga ko'ra oshirish, mahsulotlar harakatini kuzatish, yetkazib berishni ratsional tashkil qilish, resurslarni optimallashtirish, logistika va ta'minot zanjirida bitimlar va mahsulot harakati haqidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish, ombor va ta'minot zanjirida avtomatlashtirish va robototexnika texnologiyalarini qo'llash kabilarning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda logistika tizimini jahon standartlari asosida tubdan takomillashtirish, raqamli logistika tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirish, milliy logistika tizimini global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyalash va mazkur tizim salohiyatini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikada "yuklarni tashish hajmini 16 million tonnaga yetkazish, shimoliy yo'nalishda temiryo'l orqali yuk tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish, yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish, aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish, temiryo'l, havo yo'llari transportida yo'lovchi va yuk tashish xizmatlari ta'riflari shakllanishida bozor tamoyillariga o'tish hamda sohaga xususiy va xorijiy operatorlarni jalb qilish"² vazifalari belgilangan. Bu borada raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarni ustuvor darajada amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 1-fevraldagi PQ-5647-son "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-apreldagi 305-son "O'zbekiston

¹ Logistics Market Size, Share, and Trends 2024 to 2033. Precedence Research. <https://www.precedenceresearch.com/logistics-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni// www.lex.uz

Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XX asrning o'rtalarida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan C.J.Langley, K.Oliver va M.Webber, D.J.Bowersox, D.D.Closs, O.K.Hedfeichlarning tadqiqotlarida logistika xizmatlari samaradorligi tovar harakatini optimallashtirish, ta'minot zanjirlarini optimallashtirish va zaxiralarni boshqarish muammolari tadqiq qilingan³. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning nazariyalari, konsepsiyalari va modellarining logistika xizmatlari samaradorligini oshirishdagi o'rni va roli bo'yicha P.Evangelista, R.Mogre va E.Sweeney, T.Kawasaki, S.Hanaoka va H.T.Le, K.L.Choy, A.Gunasekaran, H.Y.Lam, K.H.Chow, Y.C.Tsim va T.W.Ng, Lai, Bhandari⁴ ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.L.Vasilenok, V.V.Negreva, E.I.Aleksashkina, A.I.Kruglova va S.A.Plastunov, G.V.Bubnova, B.A.Lyovinlar, T.V.Shegoleva, V.V.Negreeva, A.A.Zamyatina, D.K.Shpakovich, A.D.Sharonova, A.T.Moldabekova, R.Filipp, Z.B.Axmetova, T.A.Asanovalar⁵ logistikada raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

³ Langley C.J. The Evolution of the Logistics Concept // journal of Business logistics, 1979. №2, vol 7., K.Oliver & M.Webber "supply chain Management": logistics catches up with strategy // Christohee m/logistics. The Strategic Jsses L: Chapman and Hall, 1982. 63-75 pp, Bowersox D.J., Hedfeich O.K. Logistical Management. 3rded. MC.Millan Publishing, 1991, Evangelista P., Mogre R., & Sweeney E. (2012). A survey based analysis of IT adoption and 3PLs' performance. Supply Chain Management. 2, 172-186 pp.; Kawasaki T., Hanaoka S., & Le H.T. (2011). The Impact of Information and Communication Technology on Performance of Logistics Service Providers in Vietnam. JSCE. 1-9 pp.

⁴ Evangelista P., Mogre R., & Sweeney E. (2012). A survey based analysis of IT adoption and 3PLs' performance. Supply Chain Management. 2, 172-186 pp.; Kawasaki T., Hanaoka S., & Le H.T. (2011). The Impact of Information and Communication Technology on Performance of Logistics Service Providers in Vietnam. JSCE. 1-9, Choy K.L., Gunasekaran A., Lam H.Y., Chow K. H., Tsim Y.C., & Ng T.W. (2014). Impact of information technology on the performance of logistics industry : the case of Hong Kong and Pearl Delta region. Journal of the Operational Research Society. 904-916 pp.; Lai K. hung, Wong C.W.Y., Cheng T.C.E. Bundling digitized logistics activities and its performance implications // Industrial Marketing Management. -2010. - Vol. 39. - № 2. 273-286 pp.

⁵Василенок В.Л., Круглова А.И., Алексашкина Е.И., Негреева В.В., Пластунова С.А. Основные тренды цифровой логистики // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия: Экономика и экологический менеджмент. - 2020. - № 1(40). - С. 69-78; Бубнова Г.В., Лёвин Б.А. Цифровая логистика инновационный механизм развития и эффективного функционирования транспортно логистических систем и комплексов. International Journal of Open Information Technologies. - 2017, №3, 72-77 pp.; Т. В. Щеголева, Е. Ю. Самаричева, А.А. Парамонова. Цифровые технологии обеспечения надежности цепи поставок высокотехнологичного производства. - 2018. - С. 51-55., Негреева В.В., Замятина А. А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. Использование цифровых технологий в логистике. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. - 2020, №2 - С. 94-102. А.Т.Молдабекова, Р.Филипп, З.Б.Ахметова, Т.А.Асанова. Роль цифровых технологий в развитии логистики в Казахстане в формирование Индустрии 4.0. Экономика: стратегия и практика. - 2021. №2 (16), - С.164-177.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar tomonidan logistika sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy masalalari S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, M.Q.Pardayev, K.B.Urazov, Z.A.Orzuqulova, Y.K.Karriyeva, M.P.Eshov, N.Babayev, J.R.Zaynalov, O.M.Pardayev, Sh.V.Ergashev va N.U.Babahanova⁶larning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Ammo yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot ishida raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish masalasi o‘rganilgan bo‘lib, bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotdagi chuqur o‘zgarishlar sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

logistika xizmatlarini ko‘rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir nazariy yondashuvlarni o‘rganish;

logistika xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq qilish;

logistika xizmatlari samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini o‘rganish;

logistika xizmatlari bozorining holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

tashish va saqlash xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holatini tahlil qilish;

⁶ Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabayeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya”, 2019, 404 b., Пардаев М.Қ. Логистика турлари ва уларнинг назарий масалалари. Сервис журналы, 2023 й. 4/1-сон, 5-9 бетлар., Уразов К.Б., Холиқов Ғ.Л., Уразов Д.К. Транспорт-экспедицион хизматлар аудити. Илмий-услубий рисола. – Самарқанд, СамИСИ, 2017. – 56 б.; Orzuqulova Z.A. “Transport-logistika xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” mavzusidagi PhD dissertatsiya ishi. – Samarqand, SamISI, 2024. – 156 b.; Y.K.Karriyeva. O‘zbekistonda raqamli logistikani rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2023. 315-327 betlar, Эшов М.П. Логистика хизматларини ташкил этиш ва бошқариш тизимини такомиллаштириш. // Иқтисодий ва рақамлаштириш шароитида қулай ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш йўналишлари. Секция -1. – № 01 (2022). - 9-16 бетлар, Бабаев Н. — “Логистик сервис” ва “Логистик хизмат” тушунчаларининг замонавий когнитив таҳлили. “Экономика и социум”. № 6 (97) – 2-2022. – 333-337 бетлар, Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарқанд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар, Пардаев О.М. Махсулотларни сақлаш ва сотиш хизматлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси Автореферати. Самарқанд, 2017, - 90 б., Sh.V. Ergashev, N.U. Babahanova. Transport tizimini rivojlantirishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni tadqiq etish. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021. 25-29 betlar.

logistika xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida samaradorligini oshirishni baholash usullari;

mijozlarga logistika xizmatlarini ko'rsatish va biznes modellarining raqamli transformatsiyasi;

logistika provayderlari xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotini yoritish;

logistika xizmatlari samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida tashish, saqlash va logistika provayderlik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining servis faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, sabab-natija aloqalari, tizimli yondashuv, tanlanma kuzatuv, ekspert baholash, so'rov, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholash yondashuvi logistika xizmatini ko'rsatish jarayonini tashkil etishga sarflangan vaqt (t_p) va xizmat ko'rsatish shartlarining tabiati (t_y) inobatga olingan holda uslubiy jihatdan "operatsion samaradorlik", "texnik samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" natijalarini qiyosiy baholashga ko'ra takomillashtirilgan;

logistika xizmatini ko'rsatish tizimini raqamlashtirish jarayoni moddiy-axborot-moliyaviy oqimlar bo'yicha logistika zanjirida bajariladigan operatsiya va funksiyalarga mos ravishda raqamli texnologiyalarni qo'llashga ko'ra takomillashtirilgan;

"aqlli" raqamli logistika xizmati tizimi logistika zanjirida mijozlarga xizmat ko'rsatishda ustuvor darajada analitika va platformaga asoslangan holda an'anaviy biznes-infratuzilma provayderlar biznes-innovatsion biznes modellariga asoslanishiga ko'ra takomillashtirilgan;

logistika xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida, 2030-yilgacha moddiy oqim hajmini va unga mos tashish hamda saqlash xizmatlarini prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

logistika xizmatlari sohasida AKT, shuningdek, bajariladigan asosiy logistika operatsiyalari va funksiyalariga mos qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar tasnifi taklif qilingan;

raqamli texnologiyalar va ularning logistika xizmatlarini ko'rsatishga ta'sir jihatlari xorijiy tajriba negizida asoslab berilgan;

raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirishni baholashni tartiblashtirish yo'llari taklif etilgan;

“ta’minot-ishlab chiqarish” zanjirida logistika xizmati tizimi va elementlarini raqamlashtirish jarayoni asoslab berilgan;

logistika xizmatlari bozorida ombor xo‘jaligi va logistika provayderlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi logistika kompaniyalarining faoliyatini o‘rganish natijasida raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan;

logistika xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida samaradorligini baholashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlari taklif etilgan;

mijozlarga logistika xizmatlari ko‘rsatishning biznes modellarining elementlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Samarqand viloyatida faoliyat olib borayotgan tashish, saqlash va logistika provayderlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarining statistik ma’lumotlari va davriy hisobotlardan olinganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilib, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar asosiy logistika operatsiyalari va funksiyalariga mos qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar, logistika xizmat ko‘rsatish tizimi va tarkibiy elementlarining o‘zaro aloqadorligini raqamlashtirishni asoslab berilishi, o‘zgaruvchan bozor sharoitida mijozlarga logistika xizmatlari ko‘rsatishning raqamli biznes modellarining elementlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatishda aqlli jarayonlarni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar xizmat ko‘rsatish, logistika xizmatlar bozor holatini tahlil qilish hamda istiqbolli dasturlar va chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishda hamda oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyotlari, jumladan “Logistika asoslari”, “Transport-logistikasi” va “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” fani bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholash yondashuvi logistika xizmatini ko‘rsatish jarayonini tashkil etishga sarflangan vaqt (t_p) va xizmat ko‘rsatish shartlarining tabiati (t_y) inobatga olingan holda uslubiy jihatdan “operatsion samaradorlik”, “texnik samaradorlik” va “iqtisodiy samaradorlik” natijalarini qiyosiy baholashga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha taklif logistika xizmati ko‘rsatuvchi “Efe Inter Trans logistic” MCHJ QK va “Vision Trans Logistic Plus” MCHJ faoliyatiga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 25.10-787-sonli, Samarqand viloyat hokimligining 2024-yil 11-oktyabrdagi 06-06/820-sonli ma’lumotnomalari). Taklif raqamli texnologiyalar logistika xizmatlari

samaradorligini aniq baholash imkoniyatini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

logistika xizmatini ko'rsatish tizimini raqamlashtirish jarayoni moddiy-axborot-moliyaviy oqimlar bo'yicha logistika zanjirida bajariladigan operatsiya va funksiyalarga mos ravishda raqamli texnologiyalarni qo'llashga ko'ra takomillashtirish taklifi logistika xizmatini ko'rsatuvchi "Efe Inter Trans logistic" MCHJ QK va "Vision Trans Logistic Plus" MCHJ faoliyatiga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 25.10-787-sonli, Samarqand viloyat hokimligining 2024-yil 11-oktyabrdagi 06-06/820-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning joriy qilinishi natijasida logistika xizmat ko'rsatish tizimini raqamlashtirish asosida operatsion xarajatlar 12 foizgacha, shu jumladan transport xarajatlari 4 foiz, saqlash xarajatlarini 8 foizga qisqarishiga erishishga muayyan darajada xizmat qilgan;

"aqlli" raqamli logistika xizmati tizimi logistika zanjirida mijozlarga xizmat ko'rsatishda ustuvor darajada analitika va platformaga asoslangan holda an'anaviy biznes-infratuzilma provayderlar biznes-innovatsion biznes modellariga asoslanishiga ko'ra takomillashtirish bo'yicha taklif logistika xizmatini ko'rsatuvchi "Efe Inter Trans logistic" MCHJ QK va "Vision Trans Logistic Plus" MCHJ faoliyatiga joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 25.10-787-sonli, Samarqand viloyat hokimligining 2024-yil 11-oktyabrdagi 06-06/820-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi raqamli logistika xizmat ko'rsatish tizimida bajariladigan barcha jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida boshqarish, axborotlarni tahlil qilish va logistika operatsiyalarini raqamli muhitda bajarishga xizmat qilgan;

logistika xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida, 2030-yilgacha moddiy oqim hajmini va unga mos tashish hamda saqlash xizmatlarini prognoz ko'rsatkichlaridan Respublikada transport va logistikani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 25-oktyabrdagi 25.10-787-sonli, Samarqand viloyat hokimligining 2024-yil 11-oktyabrdagi 06-06/820-sonli ma'lumotnomalar). Ushbu taklifning joriy qilinishi logistika xizmatlarini rivojlantirishning istiqboldagi asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti hamda tadqiqotning usullari ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiya ishining **“Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy raqamli texnologiyalarning nazariyalari, konsepsiyalari va modellarining logistika xizmatlari samaradorligini oshirishdagi o‘rni va roli xorij tajribalariga oid manbalar, mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari o‘rganilgan hamda mualliflik yondoshuvi asoslab berilgan. Shuningdek, logistika xizmati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, raqamli texnologiyalarning logistika xizmatlarini ko‘rsatishga ta‘sir etish darajasi, logistika xizmatlarini ko‘rsatish sohasida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar tasnifi, moddiy, axborot va moliyaviy oqimlar bo‘yicha logistika xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarining modeli, axborot va moliyaviy oqimlar bo‘yicha bajariladigan logistika operatsiyalari, “ta‘minot-ishlab chiqarish” zanjirida bajariladigan logistika xizmati tizimi va uning elementlarini raqamlashtirish jarayoni tadqiq qilingan.

Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida logistika xizmatlari sohasida foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tasnifi tizimlashtirib chiqilgan. Bunda logistika xizmatlarining turli yo‘nalishlarida foydalaniladigan AKT va ular bo‘yicha tadqiqot olib borgan mutaxassis olimlar haqida ma‘lumotlar tahlili keltirilgan (1-jadval).

Logistika xizmatlar sohasida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni tasniflashda quyidagilarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1) “Ta‘minot-ishlab chiqarish-taqsimot-ayriboshlash-iste‘mol” zanjirini to‘liq qamrab oladigan raqamli texnologiyalar;

2) Logistikaning har bir funksional sohalari bo‘yicha turlarini, xaridlar logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, taqsimot logistikasi, ombor logistikasi, transport logistikasi kabilarda bajariladigan logistika operatsiyalari va logistika funksiyalarini raqamlashtirishda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar.

Olib borilgan tadqiqot natijasidan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ajratib olingan:

1) Ta‘minot zanjirlarini boshqarishni avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish. Avtomatlashtirilgan ta‘minot zanjirlari orqali ombor boshqaruvi, yuklarni saralash va yetkazib berish jarayonlari samaradorligi oshadi.

2) Yuk tashish va saqlash jarayonlarida IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish. IoT yordamida logistika jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatib borish mumkin.

3) Logistika xizmatlar tizimida axborotlarni boshqarishda va mahsulotlar harakatini kuzatishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish. Blokcheyn

texnologiyasi ta'minot zanjiri jarayonlarini shaffoflashtirish va xavfsizligini oshirish imkonini beradi.

4) Logistika operatsiyalar va funksiyalarni bajarishda sun'iy intellektdan foydalanish. Sun'iy intellekt va tahliliy vositalar yordamida logistika operatsiyalarini optimallashtirish, resurslarni taqsimlash va marshrutlarni yaxshilash mumkin.

1-jadval

Logistika xizmatlari sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turlari va yo'nalishlari⁷

T/r	AKT turlari	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yo'nalishlari	Mualliflar
1.	Raqamli logistika, ichki va tashqi faoliyatga va kommunikatsiyaga yo'naltirilgan texnologiyalar	Korxonalar resurslarini rejalashtirish (EPR), omborlarni boshqarish tizimi (WMS), transportni boshqarish tizimi (TPS), elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), Internet va boshqalar.	(Lai va boshqalar ⁸ , 2010)
2.	Avtomatik identifikatsiyalash texnologiyalari	Shtrixli kodlash, radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) va ovozni aniqlash	(Bhandari R. ⁹ , 2013)
3.	Kommunikatsiya texnologiyalari	Elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), juda kichik diafragma terminali (VSAT), geografik joylashuvni aniqlash tizimi (GPS), geografik ma'lumot tizimi (GIS), Internet kuzatuv, avtomatlashtirilgan avtomobilni boshqarish tizimi (AGVS), axborot tizimi (IDS)	
4.	Axborot texnologiyalari	Taqsimot talablarini rejalashtirish (DRP), zaxirani kuzatishning avtomatlashtirilgan tizimi (AITS)	
5.	Kommunikatsiya, o'rnatish va saqlash texnologiyalari	Avtomatlashtirilgan materiallarni qayta ishlash uskunalari, Avtomatik to'ldirish tizimlari, resurslarni rejalashtirish uchun CRM tizimlari, taqsimot resurslarini rejalashtirish, Elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), elektron tijorat va boshqalar.	(Richey R.G. va boshqalar ¹⁰ , 2010)
6.	Tashkiliy va tashkilotlararo texnologiyalar	Radiochastota identifikatsiyasi (RFID), elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), korxonalar resurslarini rejalashtirish (ERP)	(Jhawar va boshqalar ¹¹ , 2017);
7.	Avtomatik kuzatuv tizimlari	Global joylashishni aniqlash tizimi (GPS), Geografik axborot tizimi (GIS)	(Grabara va boshqalar ¹² , 2015)
8.	Asosiy logistika axborot tizimlari OMS, TPS va WMS	Elektron biznesni qo'llab-quvvatlash uchun axborot tizimlari, Mobil logistika biznesini qo'llab-quvvatlash uchun axborot tizimlari (M-Business)	(Kim va boshqalar ¹³ , 2008)

⁷ Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

⁸ Lai K. Hung, Wong C.W.Y., Cheng T.C.E. Bundling digitized logistics activities and its performance implications // Industrial Marketing Management. –2010. – Vol. 39. – № 2. 273–286 pp.

⁹ Bhandari R. Impact of Technology on Logistics and Supply Chain Management // Journal of Business and Management. –19–24 pp.

¹⁰ Richey R.G., Tokman M., Dalela V. Examining collaborative supply chain service technologies: A study of intensity, relationships, and resources // Journal of the Academy of Marketing Science 2010. – Vol. 38. – № 1. 71–89 pp.

¹¹ Jhawar A., Garg S.K., Khera S.N. Improving logistics performance through investments and policy intervention: a causal loop model // International Journal of Productivity and Quality Management 2017. –Vol. 20. – № 3. - P. 363.

¹² Grabara J., Nowak S., Ulfik A. Application of RFID and ICT in reverse logistic in Poland // Applied Mechanics and Materials. – 2015. – Vol. 718. 150– 155 pp.

¹³ Kim C., Yang K.H., Kim J. A strategy for third-party logistics systems: A case analysis using the blue ocean strategy // Omega. –2008. –Vol. 36. –№ 4. 522–534 pp.

Logistika xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga doir nazariy qarashlar tahlili asosida muallif logistika sohasida qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar tasnifini ishlab chiqqan. Tasnif logistikaning har bir funksional sohalari, xaridlar logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, taqsimot logistikasi, ombor logistikasi, transport logistikasi, axborot logistikasida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalarga asoslangan (2-jadval).

2-jadval

Logistika xizmatlarini ko'rsatish sohasida qo'llaniladigan operatsiyalar va funksiyalarni raqamli texnologiyalar tasnifi¹⁴

T/r	Logistika xizmatlarining turlari	Bajariladigan asosiy logistika operatsiyalari	Qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar
1.	Xarid logistikasi	Buyurtmalar portfelini shakllantirish, buyurtma berish, buyurtmalarni bajarish.	OMS, CSRP.
2.	Ishlab chiqarish logistikasi	Ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishda xom ashyo xaridi, qayta ishlash, sexlararo moddiy resurs harakati va tayyor mahsulot harakatini rejalashtirish.	MRP, CRP, MRP II, ERP, ERP II.
3.	Ombor va zaxiralarni boshqarish logistikasi	Saqlash, zaxiralar hajmini nazorat qilish, ombor ichida bajariladigan logistika operatsiyalarini bajarish.	WMS, CSRP, RFID, IoT, robototexnika.
4.	Taqsimot logistikasi	"Ishlab chiqaruvchi-iste'molchi" zanjirida bajariladigan logistika operatsiyalari, yetkazib berishlar, vositachilarga yetkazib berish.	SCM, CRM, CSRP.
5.	Transport logistikasi	Yuk jo'natmalarini kuzatish, manzilni aniqlash.	RFID, IoT, GPS.
6.	Axborot logistikasi	Ta'minot zanjirida axborotlarni tahlil qilish, uzatish, chuqur analitika.	Big Data, blokcheyn.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholash yondashuvi logistika xizmatini ko'rsatish jarayonini tashkil etishga sarflangan vaqtga (t_p) va logistika xizmatini ko'rsatish shartlarining tabiatiga (t_y) qarab qiyosiy baholash ko'rsatkichlari uch guruhga bo'lingan (3-jadval):

1) Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholashning operatsion samaradorlik usuli;

2) Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholashning texnik samaradorlik usuli;

3) Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholashning iqtisodiy samaradorlik usuli.

Shuningdek, asosiy e'tibor bajariladigan logistika operatsiyalariga qaratilgan. Asosan ikkita logistika operatsiyalari: tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatishda bajariladigan logistika operatsiyalarini raqamlashtirish natijasida olinadigan samarani baholash uslubiyati taklif etilgan.

¹⁴ Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari samaradorligini baholash¹⁵

T/r	Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi
1.	Operatsion samaradorlik	$S_t = \frac{Q_t * T_t * M}{X_{cons} + X_{o'z}}$ <p>Bu yerda: Q_t - moddiy oqim hajmi, tonnada; T_t - bir tonna yukni bir km masofaga tashish tarifi, so'mda; M - masofa, km; X_{cons} - o'zgarmas xarajatlar, so'mda; $X_{o'z}$ - o'zgaruvchan xarajatlar, so'mda.</p> $S_s = \frac{Q_s * T_s * V}{X_{cons} + X_{o'z}}$ <p>Bu yerda: Q_s - saqlanadigan moddiy oqim hajmi, tonnada; T_s - bir tonna yukni saqlash tarifi, so'mda; V - moddiy oqim saqlangan vaqt, (kun); X_{cons} - o'zgarmas xarajatlar, so'mda; $X_{o'z}$ - o'zgaruvchan xarajatlar, so'mda.</p>
2.	Texnik samaradorlik	$S_{tex} = \frac{Q_{yut} * T_{yut}}{X_{cons} + X_{o'z}}$ <p>Bu yerda: Q_{yut} - moddiy oqim hajmi, tonnada; T_{yut} - bir tonna yukni bir km masofaga tashish tarifi, so'mda; X_{cons} - o'zgarmas xarajatlar, so'mda; $X_{o'z}$ - o'zgaruvchan xarajatlar, so'mda.</p>
3.	Iqtisodiy samaradorlik	$S_{uiq} = \frac{(Q_t * T_t * M) + (Q_s * T_s * V) + (Q_{yut} * T_{yut})}{X_{cons} + X_{o'z}}$

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“O‘zbekistonda logistika xizmatlarining rivojlanish holati va tendensiyalari”** o‘rganilgan. Ushbu bobda logistika xizmatlari bozorining holati va rivojlanish tendensiyalari O‘zbekistonda transport turlari bo‘yicha tashilgan yuklar hajmi, transport turlari bo‘yicha yuk aylanmasi hajmi, hududlar kesimida avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi, hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, hududlar kesimida ko‘rsatilgan transport xizmatlari hajmi, tashish va saqlash xizmatlarining YaIMdagi qo‘shilgan qiymat ulushi, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan tashish va saqlash korxonalar soni, 2023-yilda respublikada mavjud omborxonalar va sovetkichli sig‘imlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili asosida baholangan.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Samarqand viloyatida logistika xizmatlari ko'rsatuvchi "Efe Inter Trans logistic" MChJ QK va "Vision Trans Logistic Plus" MChJlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish holati va raqamli texnologiyalarning xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'siri tadqiq qilingan. "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmat ko'rsatish samaradorligi quyidagi operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilingan:

yetkazib berish vaqti: o'rtacha yetkazib berish muddati, vaqtida yetkazib berilgan buyurtmalar ulushi, kechikish koeffitsienti;

buyurtma bajarilishi: yillik buyurtma hajmi, bir oyda bajarilgan buyurtmalar soni, kechikkan yoki bekor qilingan buyurtmalar soni;

raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatkichlar: masalan, har bir buyurtma uchun foydalanilgan texnologiyalar soni yoki avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi.

4-jadval

2019-2023 yillarda "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq ko'rsatkichlari¹⁶

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
			2019	2020	2021	2022	2023
1.	O'rtacha buyurtma hajmi	mln. so'm	22,8	30,5	45,0	60,2	75,8
2.	Buyurtmalar bajarilishida kechikish koeffitsienti	koeffitsient	0,8	0,7	0,7	0,6	0,4
3.	Raqamli texnologiyalar qo'llanilishi	%	8,5	12,8	20,0	32,0	45,0
4.	Avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushi	%	5,5	25,5	45	50	60
5.	Yonilg'i sarfini kamaytirish koeffitsienti		0,18	0,15	0,14	0,13	0,12
6.	Daromad	mln. so'm	1637,3	1990,2	2094,1	2246,3	2672,9
7.	Xarajatlar	mln. so'm	1345,3	1802,0	1811,5	1406,2	1902,9
8.	Sof foyda	mln. so'm	292,0	188,2	282,6	840,1	770,0

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmat ko'rsatishning texnik samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan:

texnik xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari: avtomatlashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish (masalan, GPS, IoT texnologiyalari orqali kuzatuv), foydalanish ko'rsatkichi (texnik jihozlar va transport vositalarining ishlash samaradorligi);

raqamli texnologiyalarning texnik jihatlari: masalan, foydalanilgan dasturiy ta'minot yoki jihozlarning yangilanishi, foydalanish qulayligi, xarajatlar va unumdorlik;

transport vositalari samaradorligi: transport vositalarining raqamli monitoring va boshqaruvi orqali foydali yuk bilan qamrab olish darajasi, yonilg'i sarfini kamaytirish koeffitsienti.

¹⁶ "Efe Inter Trans logistic" MChJ QK ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Raqamli texnologiyalar asosida logistika xizmat ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan:

daromad va foyda ko'rsatkichlari: yillik daromad, raqamli texnologiyalarni qo'llash natijasida olingan qo'shimcha daromad va sof foyda;

xarajatlar dinamikasi: masalan, raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq xarajatlar va ular orqali olingan iqtisodiy tejash (texnologiya kiritish bilan kamaygan transport xarajatlari, energiya tejalishi);

ishlab chiqarish samaradorligi: bir kishi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki foydalangan texnologiyalarga qarab xizmat ko'rsatish xarajatlari qisqarishi (4-jadval).

Yetkazib berish vaqti: bu ko'rsatkich raqamli texnologiyalar qo'llanishi ortib borgan sari kamayib, logistika samaradorligi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Har yili buyurtma hajmi oshishi korxonaning bozordagi ulushi kengaygani yoki mijozlar talabi ko'payganini ko'rsatadi. "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning o'rtacha buyurtma hajmi 2019-yilga nisbatan 2023-yilda 3,4 barobarga oshib, 75,8 mln. so'mni tashkil etgan. 2019-yilda "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning buyurtmalar bajarilishida kechikish koeffitsienti 0,8 ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida buyurtmalar bajarilishida kechikish koeffitsienti 0,4 ga qisqargan.


Raqamli texnologiyalar qo'llanilishi: foizlar raqamli yechimlarning asta-sekin oshganini, shu bilan birga avtomatlashtirish jarayonlari ham ko'payganini ifodalaydi. "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi 2019-yilda 8,5 foizdan, 2023-yilda 45,0 foizga yetgan.

Yonilg'i sarfi: raqamli texnologiyalarni qo'llash natijasida transport xarajatlari qisqargan va bu yonilg'i sarfida ham aks etgan. 2023-yilda "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning yonilg'i sarfi 2019-yilga nisbatan 0,06 l/km kamaygan.

Daromad va foyda: korxonaning raqamli texnologiyalarni qo'llab operatsion samaradorligini oshirgani natijasida daromadi va sof foydasi yildan-yilga ko'payib bormoqda. "Efe Inter Trans logistic" MChJ QKning 2023-yilda 2019-yilga nisbatan xizmat ko'rsatishdan daromad va sof foyda 1,6 barobarga oshgan.

Asosiy logistika xizmati ko'rsatuvchi transport va omborxonada eng ko'p qo'llaniladigan axborot texnologiyalari elektron hisob-fakturalar va Internet portalidir. Ishlab chiqarish korxonalaridan farqli o'laroq transport va omborxonada xo'jaligi biznesi bilan shug'ullanuvchilar bulutli IT xizmatlaridan, Big Data, WMS (omborlarni boshqarish tizimi) kabi axborot texnologiyalaridan foydalanishmoqda (1-rasm).

Samarqand viloyatida transport va omborxonalarda robototexnikadan foydalanadigan korxonalar soni jami 16 tani tashkil etadi (shundan 9 tasi sanoat robotlari va 7 tasi xizmat ko'rsatish robotlari). Asosan, transport va logistika sohasidagi kompaniyalar axborot texnologiyalari bilan bog'liq uchinchi tomon tashkilotlari va mutaxassislari xizmatlaridan foydalanadilar – bu AKT xarajatlarining 59,7 foizini tashkil qiladi. Litsenziya shartnomasi asosida foydalaniladigan dasturiy ta'minotni sotib olish qiymati ancha yuqori hisoblanadi. AKT xarajatlarining kichik ulushini (0,2 %) korxonada mustaqil dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va AKTni ishlab chiqish va foydalanish bilan bog'liq xodimlarni o'qitish xarajatlari tashkil etadi.



1-rasm. Samarqand viloyatida transport va omborxonalarida axborot texnologiyalarining turlaridan foydalanish ko'rsatuvchi korxonalarida axborot texnologiyalarining turlaridan foydalanish ulushi¹⁷, %

